

---

## IFTORLIK TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA



### **Ramazon - mehr-saxovat oyi!**

Ramazon oyi munosabati bilan Qo'shtepa tumani hokimligi, "Mahalla" xayriya jamoat fondi hamda Mahalla va Nuroniylarni qullab-quvvatlash bo'limi tashabbusi bilan tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlarida xalqimizning roziligini olish, insonlar o'rtasida xayru-saxovat va mehr- muhabbat rishtalarini yanada mustahkamlash maqsadida ezgu ishlar amalga oshirilmoqda.

Har kuni mahallalarda kam ta'minlangan, ehtiyojmand, nogironligi bor hamda nuroniy otaxon va onaxonlar uchun iftorlik dasturxonlari yozilmoqda. To'kin dasturxon atrofida nuroniylarimiz yurtimizga tinchlik, oilalarimizga totuvlik, dehqonchiliklarimizga qut-baraka tilab duo kilishmoqda.



Yangi do'kon mahallasida o'tkazilgan iftorlikda tuman hokimi Ilyosbek Novikov va va tuman prokurori Axrorjon Xudoyberganovlar ham ishtirok etishdi.

### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-04-07 13:39:23